

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

2022



ERNEST XEMINGUEY
(1899-1961)

Chol qushlar va zimlessa, belirin o'sha qoldirg'ochlarga achiqib ketar va qushlar turmushil, qirin-qora va katta kuchli qushlarni hisobga olmayardagi, bizning kuri kechirishimizga qarayardida, ham juda sige. Okean gohisa shu qadar ham berishni bolar elan, hime uchun qushlarni manz bi dengiz qoldirg'ochlari singan nozik va shikasta qilib jarayganler. Okean sadoq va zo'zal, urmo u zibo tozakdan shunday shaf-qatsiz bolib ketadiki uning ustini ozig ilminda charyz urib shonig'i, olib va mangli ovoz bilen bir-birlariga jar belis uchjan su qushlar ungi intillaten bentnoye salib va mohi ko'rinishi.

"CHOL VA DENGIZ" ASARI



CONFERENCES.UZ

AVGUST №43

Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.

 +998 97 420 88 81 +998 94 404 00 00 www.taqiqot.uz www.conferences.uz

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
7-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-7**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-7**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 43-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 38 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

1. Baxramova Nodira Amandilloyevna	
ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INTERFAOL USULLAR	7
2. Temirova Feruzabonu Temir qizi	
PROKSEMIK BELGILAR TIZIMI.....	9
3. Temirova Feruzabonu Temir qizi	
NOVERBAL MULOQOT TIZIMLARINING AHAMIYATI.....	11
4. Zamira Ikromova Shamsutdinovna	
ONA TILI FANIDA IMLOVIY SAVODXONLIKNI O'STIRISH	13
5. Masharipova Maqsuda Ozodovna	
SIFAT HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHА	14
6. Mo'ydinova Surayyo Po'latxanova	
O'ZBEK ADABIY TILI ME'YORLARI.....	15
7. Ubaydullayeva Nargiza Xamidxonovna	
COMMON READING PROBLEMS OF STUDENTS	17
8. Begisheva Nuriya Ibragimovna	
MAKTABDA O'ZBEK TILI FANIDAN 5 SINFLAR UCHUN "YANGI FANLARNI O'RGANAMIZ" MAVZUSIDA NAMUNAVIY DARS ISHLANMASI.....	19
9. Dalieva Madina Khabibullaevna	
POLYSEMY AS A MEANS OF EXPRESSION AND DIFFERENT APPROACHES ON THIS ISSUE	20
10. Narzullayev Shahzod Tolib o'g'li	
METHODICAL RECOMMENDATION: HOW SHOULD BE THE ROLE OF TEACHER IN A CLASS?	22
11. Nurullayeva Muhabbat Saydullayevna	
5 SINF O'QUVCHILARI UCHUN O'ZBEK TILI FANIDAN "USTOZGA RAXMAT" MAVZUSIDA NAMUNAVIY DARS ISHLANMASI	23
12. Khoshimova Fotima Rakhmatillaevna	
REALIZATION OF COMMUNICATIVE AND PRAGMATIC INTENTION OF HUMOR IN ENGLISH AND UZBEK	24
13. Эргашова Ситора Рахматуллаевна	
FORMATION OF KEY COMPETENCES IN ENGLISH LANGUAGE LESSONS	27
14. Musayeva Lolajon Atabayevna, Ibragimova Gulandom Axmedovna	
SIFATNI O'RGANISH METODIKASI	28
15. Norinboeva Durdonakhon Janobiddin qizi	
RUHIY HOLATNI IFODALOVCHI SO'Z VA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI	30
16. Rajapov Dilshad Bahodirovich, Djabbarova Ranojon Ataboyevna	
TIL MILLATNING RAMZI	32
17. Ramanova Raxima Zokirboy qizi, Masharipova Muqaddas Odamboyevna	
ONA TILI FANINI O'QITISHDA FSMU METODIDAN FOYDALANISH	34
18. Исмаилова Манзура Султановна, Бегова Базоргуль Тулиевна	
ФОНЕТИКА	36



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INTERFAOL USULLAR

Baxramova Nodira Amandilloyevna

Qibray tuman kasb-hunar maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiyoq o'rta ta'limga muktabi ona tili va adabiyot fanlari dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning nazariy va amakiy ahamiyati haqida fikrmulohazalar yurutilgan.

Kalit so'zlar: Ta'limga tizimi, interfaol metodlar, ona tili va adabiyot, loyihalashtirish, innovatsion uslub.

Ona tili va adabiyot darslarida innovatsion zamonaviy o'qitishning metodikasi barkamol, komil insonning madaniyatini shakllantirishga qaratiladi. Ona tili va adabiyot darslaridagi interfaol usullar o'quvchilarni harakatga keltiruvchi, olg'a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. Ta'limga tarbiya jarayonida yillar davomida qo'llanilib kelinayotgan an'anaviy ta'limga o'rniga o'qitishning ilg'or shakllari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion usullar singari bir qator yangi tushunchalar kirib kelmoqda. Xo'sh, pedagogik texnologiyalar biz pedagoglarga qanday qulaylik va imkoniyatlar yaratib berayotir? Birinchidan, zerikarli darslar o'rniga o'quvchining ijodiy faolligini amalga oshiruvchi darslar; Ikkinchidan, darslardagi maksimal darajadagi faollikkaga erishish imkoniyati; Uchinchidan, o'qituvchi energiyasining tejalishi; To'rtinchidan, o'qituvchi shaxsida dars mashg'ulotidan qoniqish hissining yuzaga kelishi; Besinchidan, o'quvchilarning o'tilayotgan mavzuni o'zlashtirishi yaxshi bo'lishining ta'minlanishi va h.k. Biroq, pedagogik texnologiyalarning barchasini ham ona tili va adabiyot fanini o'qitishga tadbiq qilinishi biroz muammolar tug'diradi.

Faylasuflardan birining "O'yin barcha yoshdagilar uchun sevimli mashg'ulot turidir", - deb aytgan fikrida jon bor. Aynan ta'limga jarayoniga tadbiq qilinayotgan didaktik o'yinlar vositasida o'quvchilar harakatga keladi, ularning faolligi rag'batlaniriladi, sinfda ijobiy muhit shakllanadi. Natijada o'quvchi passiv eshituvchidan faol ta'limga oluvchi obraziga o'tadi. Turli xil innovatsion metodlar bor. O'yin texnologiyalaridan tashqari interfaol metodlardan "Aqliy hujum", "6x6x6", "Babs-munozara", "Savol bering", "Kichik guruhlarda ishlash", "Burchaklar metodi", "Kubiklar", "Pinbord", "Bumerang", "Skarabey", "Roven diagrammalari", "Blits-o'yin", "Klaster", "Loyihalash", "Zanjir", "Insedent", "Sinkveyn", "Muzyorar", "Debat" kabilarni sanab o'tish mumkin. Bu metodlar sinfda o'rganiladigan mavzular yuzasidan muammoli vaziyatlarni yaratishga, mavzuni muhokama qilish asosida bahs - munozara orqali muammo yechimini topishda yaqindan yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshiruvchi vositadir. Bu ta'limga o'quvchilarning bilimlarini mustaqil egallashga undovchi o'qitishning muammoli uslubidir. Ona tili va adabiyot darslarida interfaol usullardan eng samaralilaridan "Muammo" texnologiyasini qo'llash qo'llash foydalidir. Jadval holatida guruhlar o'z muammolarini quyidagicha tuzishlari mumkin: Muammo texnologiyasi: Muammoning turi; Muammoning kelib chiqish sabablari; Muammoning hal etish yo'llari va takliflar. "Muammoli vaziyat" usuli uchun tanlangan muammoning murakkabligita'limga oluvchilarning bilimdarajalariga mos kelishi zarur. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmaslik, ta'limga oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. "Muammoli vaziyat" usuli qo'llanilganda ta'limga oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar. Ta'limga ushbu turiga muvofiq talabalar bilan munozaralar, didaktik o'yinlar maxsus ijodiy topshiriqlar o'tqaziladi. Yangi pedagogik texnologiyalarga muvofiq talaba ona tili materiallarini tayyor holda o'zlashtirmay, uni



izlashi, ijodiy faoliyat ko‘rsatishi zarur. O‘quvchilar o‘yinda ishtirok etib, birgalikda masalani hal qiladilar, bir-birlari bilan muloqotga kirishadilar, o‘rtoqlarining fikrlarni tinglashni o‘rganadilar, jamoa bo‘lib topshirqlarni bajarishda o‘quvchilarning turli imkoniyatlaridan foydalanidilar, bolalar amaliy faoliyatlarida tez idrok qiluvchi, tanqidiy baho beruvchi, tirishib, astoydil ishlovchi, ehtiyyotkor, xatarli o‘rtoqlarini bilib oladilar. Eng muhimi har bir o‘yinda o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan natijani yaqinligi (o‘yinni tugallanishi) o‘quvchilarni maqsad(g‘alaba)ga erishishga va unga erishish yo‘llarini anglashga (boshqalardan ko‘proq bilish zarur) rag‘batlanadiradi.

Savol berish orqali o‘qitish usuli. O‘qituvchi o‘quvchilar oldiga savollarni ko‘ndalang qilib qo‘yadi va bu bilan ularni berilgan ma'lumotni yana takrorlashga undaydi. Shu tariqa ularni o‘qituvchi tomonidan qo‘llanilgan og‘zaki va boshqa aloqa uslublarini tushunib yetganliklari aniqlanadi. Muhokama usuli. O‘quvchilarga suhbatlashish, masalalarga oydinlik kiritish, savollar berish, shuningdek ma'lumotni o‘zaro va o‘qituvchi bilan muhokama yo‘li bilan tahlil qilish taklifi kiritiladi.

Babs-munozara usuli. O‘quv guruhini ikki guruhgaga bo‘lgan holda, biror mavzu bo‘yicha o‘zaro baxs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladi. Boshqalarni o‘qitish orqali o‘rganish usuli. Bu usulda ta’lim oluvchilar belgilangan mavzu yoki qo‘yilgan muammo bo‘yicha bir - birlariga axborotlarni almashadilar va o‘z bilganlarini boshqalarga o‘rgatadilar.

“Qay biri to‘g‘ri?” muhokamali lug‘at diktant: Xaykal-haykal, xuriyathurriyat, polapon-palapon, shavqat-shafqat, xayr sadaqa-xayr-sadaqa, qat‘iy nazarqat‘i nazar, sentyabr-sentabr.

O‘quvchilar slayd orqali ko‘rsatilgan lug‘atdan so‘zlarni taqqoslab, to‘g‘ri deb topgan variantini izohlashadi, agar noto‘g‘ri bo‘lsa xatosini anglaydi, daftarga to‘g‘ri so‘zlarni ko‘chirib yozishadi. Bu usul orqali o‘quvchi xatoni qayta takrorlamaydi. Shuningdek, o‘rganilgan mavzuni puxtarog o‘zlashtirish uchun "Teskari" o‘yin usulini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilar 4 daqiqa ichida o‘ylab, daftarga fikrini qayd etishadi. lar ko‘p yig‘laydi, lar oz kuladi. (Kichiklar-kattalar) Bu usul o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishga va savodxon bo‘lishiga xizmat qildi.

Xulosa qilib aytganda, darsga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri -ta’lim metodlari va usullarini bir-biri bilan mustahkam bog‘lab olib borish samaradorligini oshirishdir. Didaktik o‘yinli metodlar o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Sayidaxmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar mohiyati. "Xalq ta‘limi", 1999-yil.
2. B. Farberman. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. –T., 2000.
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari.



PROKSEMIK BELGILAR TIZIMI

Temirova Feruzabonu Temir qizi
UzDJTU mustaqil taqiqotchisi
Tel:+998(97)8713070
yagona199212@mail.ru

Annotatsiya: “Proksemik” atamasining muallifi amerikalik psixolog va antropolog Edvard Xolldir. Olim har bir insonning o’z shaxsiy makoniga ega ekanligini, u ongsiz ravishda o’zi uchun qulay tarzda tashkil etishga harakat qilishini payqadi. 1969 yilda E. Xoll “Молчаливый язык” deb nomlangan kitob yozadi, unda olim suhbatdoshlar o’rtasidagi masofa va pozitsiyaning kishilar munosabatiga bo’lgan ta’siri xaqida fikr yuritadi. Proksemika noverbal muloqotning turi bo’lib, muloqot qiluvchi odamlar orasidagi masofaning qanchalar muhim ekanligi bilan tavsiflanadi.

Kalit so’zlar: proksemik belgilar, intim hudud, shaxsiy hudud, ijtimoiy hudud, ommaviy hudud, masofa, pozitsiya,

Proksemik belgilar tizimi kommunikativ jarayon ishtirokchilarining fazodagi joylashuvidan iborat. Muloqot davomida kishilar o’rtasidagi munosabat 4 xil xududdan birida amalga oshiriladi. Jumladan, intim xudud (oralig’i 15-45sm) ga eng yaqin va tanish odamlargina kiritiladi. Uning asosiy belgilari: ishonch muxiti, past ovoz, taktil aloqa. Bu xududga begonalar kirishi organizmda muayyan fiziologik o’zgarishlarni keltirib chiqaradi. (yurak urishi tezlashadi, adrenalin ajralishi ko’payadi). Shaxsiy xudud (45-120 sm) da tanishlar, xamkasblar muloqoti amalga oshiriladi. Uning asosiy belgilari: vizual kontaktning uzoqroq davom etishi, verbal muloqotning noverbal muloqotdan ustun bo’lish. Ijtimoiy xudud (120-400 sm) da begona kishilar muloqoti amalga oshadi. Uning asosiy belgilari: muloqotning rasmiy xarakterga ega bo’lishi, suzbatdoshlar bir-birini yaxshi tanimasligi. Ommaviy xudud (400 sm va undan ortiq) da kishilarning katta guruxi bilan muloqot qilinadi. Uning asosiy belgilari: bevosita kontaktning yo’qligi, noverbal signallar rolining ortishi.

Noverbal muloqotning proksemik xususiyatlari aloqa paytida odamlar orasidagi masofa va suhbatdoshingizga nisbatan sizning yo’nalishingizdir. [1.32]

Noverbal kommunikatsiyaga ta’sir qiluvchi omillar

- milliy va madaniy xususiyatlar;
- salomatlik holati;
- kasbiy odob-axloq qoidalari;
- ijtimoiy maqom;
- ma’lum bir yosh guruhi tegishli. [3.76-81]

Shaxslar o’rtasidagi aloqalardagi u yoki bu masofa suxbatdoshlarning ijtimoiy mavqeい, ularning milliy xususiyatlari, yoshi, jinsi, shuningdek sheriklar munosabatlarining tabiatini bilan belgilanadi. O’z navbatida proksemik vositalar ham noverbal muloqot shakllaridan biridir. Aytish mumkunki ikki kishining muloqot jarayonidagi joylashgan joyi, tanlagan pozitsiyasi va ular orasidagi masofaga qarab muloqot xarakterini baholash mumkin. [2.119]

1. Burchak joylashuvining pozitsiyasi talaba va o’qituvchi, rahbar o’z qo'l ostidagilar bilan muloqot qilish uchun eng qulaydir, chunki ikkalasida ham fikr almashish, imo-ishora qilish uchun etarli joy mavjud. Stolning burchagi kutilmagan hujumlardan himoya qiluvchi tinchlantiruvchi to’siq bo’lib xizmat qiladi. Ularning qarashlari bir-biriga mos kelmaydi va munozaraning qiyin nuqtalari haqida gap ketganda, har doim ko’zlarini harakatsiz ob’ektga qaratib, javobni shakllantirishga e’tibor qaratish mumkin.

2. Raqobat-mudofaa pozitsiyasi - qizg’in bahs-munozaralarda, tortishuvlarda, muhokamalarda qo’llaniladi. Suhbatdoshlar bir-biriga qarama-qarshi o’tirishadi, bu esa muhokama qilinayotgan masalalarning jiddiyligiga qarab har soniyada o’zgarishi mumkin bo’lgan mimika, imo-ishoralarni yaxshi ko’rib chiqishga imkon beradi. Ularning orasidagi stolga o’xshash to’siq, agar tinch muhokama to’satdan qo'l silkitish va raqibni ko’kragidan ushslash istagi bosqichiga aylanib qolsa, nisbatan xavfsizlik imkoniyatini beradi. Bunday holda, bir-biriga qarama-qarshi pozitsiya suhbatdoshning og’zaki bo’lmagan signallarini o’tkazib yubormaslik va ularga o’z vaqtida javob berishga yordam beradi.

3. Mustaqil pozitsiya - muloqot qilishni istamasligini ko’rsatadi. Suhbatdoshlar stolning turli



burchaklarida o'tirishadi, bu esa muloqot jarayoniga salbiy ta'sir qiladi.

4. Yo'naltirilgan hamkorlik pozitsiyasi - suhbat ishtirokchilari o'rtasida jismoniy to'siqlar yo'q, ular yonma-yon o'tirishadi. Muloqot maxfiy va samimiydir. Ushbu pozitsiyada deyarli barcha masalalar va mavzularni muhokama qilish mumkin, chunki suhbatdoshlar bir-birini to'liq qabul qilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1..M.Maxsudova.Muloqot psixologiyasi. 0 ‘quv qo'llanma. — T.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2006.— 32b

2.Филимоненко Ю. И. Отношение к пространству как функция подсознания // Психологические проблемы самореализации личности / под ред. А. А. Реана, Л. А. Коростылевой. — СПб., 1998. — Вып. 2. — С. 119—135.

3.Гузикова М. О., Фофанова П. Ю. Основы теории межкультурной коммуникации. Учебное пособие // Электронный ресурс. — Е.: Издательство Уральского университета, 2015. — С. 76—81.



NOVERBAL MULOQOT TIZIMLARINING AHAMIYATI

Temirova Feruzabonu Temir qizi
UzDJTU mustaqil taqiqotchisi
Tel:+998(97)8713070
yagona199212@mail.ru

Annotatsiya: Aslida, muloqot biz bilgandan ko'ra ko'proq ma'noni anglatadi. So'zlar bizning shaxslararo muloqotimizning kichik bir qismidir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muloqot paytida biz barcha ma'lumotlarning 55 foizini tana harakatlari yordamida olamiz: ko'z bilan aloqa qilish, imo-ishoralar, pozitsiya, postlar; Axborotning 38 foizi ovoz ohangi bilan, faqat 7 foizi suxbat bilan uzatiladi. Shuning uchun nafaqat nima deyishimiz, balki uni qanday aytishimiz ham muhimdir.

Kalit so'zlar: Optik – kinetik, mimika, paralingvistik tizim, ovoz sifatlari, diapozon, proksemik tizim, vizual kontakt.

No verbal kommunikatsiya tizimlari kommunikatsiya jarayonida muhim rol o'yndaydi. Ular nutqni to'ldiradi, uning o'rnini bosadi, kommunikativ jarayon ishtirokchilarining emotsiyal holtini aks ettiradi. [3.32b]

No verbal (nutqsiz) kommunikatsiya vositalariga yuz ifodasi, mimika, oxang, pauza, poza (xolat), ko'z yosh, kulgu va boshqalar kiradi. Bu vositalar verbal kommunikatsiya – so'zni to'ldiradi, kuchaytiradi va ba'zan uning o'rnini bosadi.

Axborotni so'z bilan bayon etishning mazmuni va maqsadiga no verbal kommunikatsiya vositalarining mos kelishi muomala madaniyatining bir turidir. Nutqsiz kommunikatsiyada qo'llanayotgan vositalarning axborotni so'z bilan yetkazish maqsadlariga va mazmuniga muvofiqligi munosabat madaniyatining tarkibiy qismlaridan xisoblanadi. No verbal muloqot tizimlari kommunikatsiya jarayonida muxim rol o'yndaydi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda 80% axborot imo-ishoralar, mimika va pantomimika yordamida ifodalanadi. [3.36b]

No verbal belgilar nutqni to'ldiradi, ba'zida uning o'rnini bosadi, kommunikativ jarayon ishtirokchilarining emotsiyal xolatini aks ettiradi. Shuning uchun muloqot davomida no verbal signallarni kuzatish va ularning mazmunini tushunish juda muximdir. No verbal muloqatda quyidagi belgilar tizimlaridan keng foydalaniladi:

1. Optik – kinetik tizimga imo-ishoralar (qo'l motorikasi), mimika (yuz motorikasi), pantomimika (butun gavda motorikasi) kiradi. Ushbu belgilarning muloqotdagi ahamiyati shunchalik kattaki, ularni o'rghanish uchun alohida soha – kinesika shakllangan.

2. Proksemik tizimga kommunikativ jarayon ishtirokchilarining fazodagi joylashuvi va kommunikatsiya nutqi kiradi.

3. Vizual kontaktga ko'zlar orqali muloqot kilish kiradi. Dastlab muloqotning bunday turi faqat intim muloqot doirasidagina bo'lishi mumkin deb hisoblangan. Ammo so'nggi tadqiqotlar vizual kontakt boshqa sohalarda, ya'ni tibbiyot, pedagogika, boshqaruv kabilarda ham kuzutilishini isbotlamoqda.

1. Kinetik belgilar tizimi – imo-ishoralar, mimika va pantomimikdan iborat. Masalan, rost so'zlayotgan kishi ochiq kaftlarini ko'rsatishdan qo'rqlaydi. Yolg'onchi esa kaftlarini berkitishga xarakat qiladi. Suxbatdoshdan o'zini yuqori tutish belgilardan biri – butun kaft cho'ntakda bo'lib, bosh barmoqning tashqariga chiqarib qo'yilganidir. Asabiylig xolati kishining biror narsaga – bilak uzugi, soati va shu kabilarga xech qanday maqsadsiz qayta-qayta tegib turishi ostiga yashirinadi. Kiyimdag'i yo'q changlarni qoquvchilar bunday xarakati bilan suxbatdosh fikriga e'tiborsizligini yoki qo'shilmasligini ko'rsatadi. Agar kishi daxanini kafti bilan tirab o'tirgan bo'lsa, diqqat bilan tinglayotgani va o'ylanib qolganidan darak beradi. [2.39-50]

2. Proksemik belgilar tizimi kommunikativ jarayon ishtirokchilarining fazodagi joylashuvidan iborat. Muloqot davomida kishilar o'rtasidagi munosabat 4 xil xududdan birida amalga oshiriladi. Jumladan, intim xudud (oralig'i 15-45sm) ga eng yaqin va tanish odamlargina kiritiladi. Uning asosiy belgilari: ishonch muxiti, past ovoz, taktil aloqa. Bu xududga begonalar kirishi organizmda muayyan fiziologik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. (yurak urishi tezlashadi, adrenalin ajralishi ko'payadi). Shaxsiy xudud (45-120 sm) da tanishlar, xamkasblar muloqoti amalga oshiriladi. Uning asosiy belgilari: vizual kontaktning uzoqroq davom etishi, verbal muloqotning no verbal muloqotdan ustun bo'lish. Ijtimoiy xudud (120-400 sm) da begona kishilar muloqoti amalga



oshadi. Uning asosiy belgilari: muloqotning rasmiy xarakterga ega bo’lishi, suzbatdoshlar bir-birini yaxshi tanimasligi. Ommaviy xudud (400 sm va undan ortiq) da kishilarning katta guruxi bilan muloqot qilinadi. [1.416]

3. Vizual kontakt ko’zlar orqali amalgalashuvda aloqa. Psixologik tajribalardan maъlum bo’lishicha, suxbatdoshlar bir-birining ko’zlariga tikilishi bilan o’zidagi yoqtirish, sadoqat yoki tajovuzkor reaktsiyalarga tayyorlikni ifodalaydi. Yoqimsiz mavzudagi suxbat davomida kishilar ko’zlar to’qnashuvidan o’zlarini saqlaydilar.. Odamning emotsiyalialarini tashabbus qilishiga ham sabab bo’lishi mumkin. [3. 37b]

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1.Allan Barbara Piz The Definitive Book of Body Language 2016. — C. 208—390. — 416 c. — ISBN 978-5-699-11872-4.

2.Ekman, Paul. Emotional and conversational nonverbal signals (неопр.) // Language, knowledge, and representation. —2004. — C.39—50.

3.M.Maxsudova.Muloqot psixologiyasi. 0 ‘quv qo’llanma. — T.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2006.— 32b



ONA TILI FANIDA IMLOVIY SAVODXONLIKNI O'STIRISH

Zamira Ikromova Shamsutdinovna

Namangan viloyati Norin tuman 28-maktab

Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

997217018. zamiraikromova@gmail.com

Annotatsiya : Ushbu maqolada ona tili o'qitishning ilmiy asoslari va uning gramatik, lingvistik, morfologik, fonetik tasniflari haqida yozilgan. Yoshga oid hususiyatlarining jihatrali to'g'risida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Imloviy savodxonlik, ona tili, analitek-sintetik, nazaryasi, fonetika, fonologiya, leksika, morfologiya, gramatika.

Zamonaviy hayotimizning ilm fansiz tessavur qilish juda qiyin. Bugungi kunga kelib o'quvchilar, qolaversa, butun jamiyat kishilarining imloviy savodxonligini yaxshilash davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi barcha adabiyot ahllari singari menda ham quvonch va faxr tuyg'ularini in'om etdi. Qadim zamonlarda ham imloviy savodxonlik ota-bobolarimizning diqqat markaziga bo'lган. Podshohlarning saroylarida eng yuqori moyana xattotlarga to'langan. Ko'p yillik pedagogik tajribamidan kelib chiqib, shuni angladimki, imloviy savodxonlik ichki - madaniyat, ma'rifatning kengligi darajasini belgilaydi. Har gal biror sinfga saboq berish uchun kirarkanman, dastlab ularning savodxonlik darajasini aniqlayman. Mening nazarimda, savodxonlik darjasini yuqori bo'lган o'quvchining xotirasni yaxshi, sog'lom fikr sohibi, tafakkur imkoniyati keng bo'ladi. O'quvchilarning savodxonlik darajasini oshiruvchi omillar bisyor, shulardan biri ularni kitob o'qishga qiziqtirish orqali amalga oshiriladi.. Dunyoni bilish nazariyasi ona tili o'qitish metodikasining metodologik asosi hisoblanadi. Metodikaning amaliy ahamiyati o'quvchilarning til boyligi ni har tomonlama to'liq bo'lib olishlarini ta'minlashdir. Til kishilar o'rtasida aloqaning zaruriy vositasidir, tilsiz jamiyatning yashashi mumkin emas. Metodik fan sifatida ona tili o'qitish metodikasi mifikada o'qitishning o'quvchilar nutqini yahshi rivojlanishiga kafolat beradigan tilnin har tomonlama bilishning ijtimoiy rolini tushuntiradigan yo'llari bilan ta'minlash kerak, demak nutq o'stirish mifikada pedagoglarining muhim vazifasidir. Analitek-sintetik ishlar yordamida yil ustida kuzatishdan umumiyl xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoida, shular asosida og'zaki va yozma tarzdagi jonli nutqiy aloqaga to'g'ri talafuzga o'tadilar. Ular kuzatish jarayonida bilib olgan, o'zlashtirgan qoidalarni amalyotga tatbiq etadilar.

Metodika bilish nazaryasidan tashqari, yangi fanlar, xususan psixologiya, pedagogika ma'lumotlariga tayanadi. Pedagogic psixologiya bilimlarining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini, ko'nikma va malakaning shakllanishni tekshiradi. Metodika psixolingvistika ham bilan ham bog'liq.

Savod o'rgatishda fonetika, fonologiya, grafika asos bo'ladi. Lug'at ishini tashkil etishda leksikologiya, so'z tarkibi, so'z yasalishini o'rganishda so'z yasalishi, etimologiya, gramatika asos bo'lsa, morfologiya va sintaksis til yasalishi haqida tushuncha beradi. To'g'ri yozishga orfologiya nazariyasi asoslanadi. O'qish metodikasi adabiyot nazaryasiga asoslanadi. Chunki o'quvchilar badiiy asarni amaliy tarzda tahlil qiladilar. Boshlang'ich sinflarda adabiyotshunoslikdan nazariy ma'lumot berilmaydi. Ammo metodika adabiiy asarning yaralish qonuniyatlarining va uning o'quvchilarga ta'sirini ayniqsa, adabiyotshunoslikka oid mavzulrdan asarlarning g'oyaviy mazmunini, uning mavzusini va mazmunini, qurilishi, janri, tasviriy vositalarni hisobga olish zarur.

O'quvchilarga ona tilini o'rgatish, ularni tarbiyalash, har tomonlama o'stirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazaryasiga asoslanib, barcha yaqin, o'zaro bog'liq fanlar tavsiyalariga asoslanib ona tili o'qish metodikasi o'z tamoillarini ishlab chiqadi. Bu tamoillar umumdidaktik tamoillaridan tashqari tamoillar bo'lib, o'quvchilar bilan o'quvchi o'rtasida o'quv mehnatining yo'naliшlarini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ona tili o'qitish metodikasi. Mamatov. G.A. Boqiyeva.X.S. Masharipov.U Toshkent-2014
2. Ona tili o'qitish metodikasi . Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldasheva Sharofjon Sariyeva. Toshkent-2009
3. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. G'oyibnazar Ernazar. Toshkent-2013
4. Ona tili o'qitish metodikasi. ZiyoNET.



SIFAT HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHА

Masharipova Maqsuda Ozodovna

Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi
19-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sifat so'z turkumi haqida keng ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Sifat darajalari, oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja ozaytirma sifatlar, kuchaytirma sifatlar.

Predmet belgisining ortiq-kamligiga ko'ra farqlanishi sifat darajalari deyiladi: go'zal, aqliroq, eng bilimli kabi.

Sifatlarda 3 ta daraja bor:

1. Oddiy daraja; 2. Qiyosiy daraja; 3. Orttirma daraja.

1.Predmetning belgisini boshqa predmetdagi belgiga qiyoslamagan holda ifodalaydigan sifat oddiy darajadagi sifat deyiladi.

Masalan: qizil, shirin, katta, aqli, e'qimli kabi

Mirzo Bobur katta shoir, jangu jadalda qo'rqish nimaligini bilmas sarkarda bo'lib yetishibdi. (Laylak keldi yoz bo'ldi)

Predmetlardagi bir xil belgini qiyoslashdan 2 xil daraja: qiyosiy va orttirma daraja kelib chiqadi.

2.Predmetlardagi bir xil belgini taqqoslagan holda ko'paytirib, orttirib ifodalaydigan sifatlar qiyosiy darajadagi sifatlar deyiladi. Qiyosiy daraja-roq qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilanadi. Bunday sifat qatnashgan gapda -dan -ko'ra, -ga -qaraganda, -ga nisbatan, -dan qo'shimchali so'z va birkmalar keladi. Masalan: Undan aqliroq bola ekanligini suhbatlashganda aytgan fikrlaridan sezildi. (S.Kamol)

3.Orttirma daraja. Predmetlardagi bir xil belgi qiyoslari orqali o'ta orttirib ko'rsatadigan sifatlar orttirma darajadagi sifatlar deyiladi. Oddiy darajadagi sifat oldiga eng, hammadan, g'oyat, g'oyatda so'zlarini keltirib hosil qilinadi.

Masalan: Eng yaxshi she'rlari chop etilgan yosh shoirlar bahru bayti uyuştirishdi.

Ozaytirma va kuchaytirma sifatlar

Sifatlar predmetdagi belgini normal holatdan kamaytirib yoi ko'paytirib ifodalashi mumkin. Bunda qiyoslash, taqqoslash bo'lmaydi.

Shunga ko'ra sifatlar ikki turga bo'linadi:

1.Ozaytirma sifatlar. Predmetlik belgisini kamaytirib ifodalamaydigan sifatlar ozaytirma sifat deyiladi. Ular ikki xil yo'l bilan hosil qilinadi:

1)Morfologik yo'l bilan. Bunda sifatga -mtir, -imtir, -ish, -mtil, -imtil, -roq qo'shimchalarini qo'shib hosil qilinadi: qoramfir, sarg'imtil, oqish, ko'kish, qizg'in kabi.

Masalan : Quyoshning qizg'ish nuri sahnani yoritadi.

2.Sintaktik usul bilan. Bunda sifat oldiga och, nim, sal, picha so'zlarini keltirib hosil qilinadi: och pushti, nim qorong'u, sal achchiq, picha sho'x kabi

Masalan: Qayiqlar to'xtaydigan joyda och yashil, tiniq, moviy, rang xoziya-oppoq qayiqlar yengil to'lqinda chayqalib turardi. (S.Komol)

3. Kuchaytirma sifatlar: Bu sifatlar predmetlarning belgisini qiyoslamagan holda kuchaytirib ifodalaydi. Ular sifatning birinchi bo'g'innini tovush o'zgarishlari bilan, birinchi bo'g'inni ikkinchi bo'g'indagi bir tovushni qo'shib takrorlash orqali birinchi bo'g'inga tovush qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi: ko'm-ko'k, oppoq, but-butun, yap-yapaloq.

Masalan: Jeyms Yaxtani to'ppa-to'g'ri qayiq turgan yerga haydar borardi. (S.Kamol)

Shuningdek kuchaytirma sifatlar sifatning oldiga tim, g'irt, obdon, juda so'zlarini keltirib hosil qilinadi: g'urt xom, tim qora, obdon sho'x, juda go'zal kabi.

Ba'zan sifatlar juft xolatda qo'llanganda noaniq belgini ifodalananasi mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. A.G'ulomov. Ona tili o'qitish printsiplari va metodlari. T.: O'qituvchi, 1992.

2. www.ziyonet.uz sayti.



O'ZBEK ADABIY TILI ME'YORLARI

Mo'ydinova Surayyo Po'latxanova

Farg'ona viloyati Farg'ona shahar
42-son umumiy o'rta ta'llim maktabining
o'zbek tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada til va nutq tizimida me'yorlarning ahamiyati, o'zbek adabiy tili me'yori turlari haqida haqida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: nutq, me'yor, til, jarayon, birlilik, talaffuz, so'z, ibora, uslub.

Me'yor-jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan, maqullangan va ularga tushunarli bo'lган til birliklarining nutq jarayonida qo'llanish holati va imkoniyatidir.

Til va nutq tizimida me'yor o'ziga xos o'ringa ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardanoq uni me'yorlashtirish jamiyat ehtiyojiga aylangan va me'yoriy muammolar kun tartibiga qo'yilgan.

Jamiyat taraqqiyoti bilan baravar holda til va nutqdagi me'yoriy holatlarni o'rganish, tahlil qilishga ham ehtiyoj kuchayib borgan va bu muammolarni hal qilishda xalqning maishiy, ma'naviy-marifiy turmushi, ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashi, urf- odatlari singari qator omillar e'tiborga olingan.

Til hodisalarini, uning me'yoriy jihatlarini tadqiq etishda yana tilning milliy xususiyatlarini hisobga olmaslik ham aslo mumkin emas. Anglashiladiki, til me'yorini belgilash muammolarini qilish har bir milliy til madaniyatini rivojlantirishning uzviy qismiga aylanadi. Shuning uchun ham me'yor masalalarining nutq madaniyati doirasida o'rganilishi bejiz emas. Tildan foydalanishdagi an'anaviy me'yorlarning davrlar o'tishi bilan o'zgarib, yangilanib turishi ham tarixiy jarayondir.

Tadqiqotchilarning aytishicha rasmiy muomalada tildan foydalanish tilning me'yorlashuvini, adabiy tilning shakllanishini tezlashtirgan.

Til birliklarini me'yorlashtirish, hamma uchun umumiyoq bo'lgan bir qolipga keltirish tilshunoslikning muhim vazifasi hisoblanadi. Me'yor masalalari shu sohaning o'rganish obyekti bo'lib qoladi.

Til birliklarining adabiy shaklda me'yorlashuvida badiiy adabiyotning o'rni ham alohida. Badiiy ijod jarayonida shoir va yozuvchilar o'z fikr va hissiyotlarini boshqa ijodkorlardan farq qiladigan ifodalarda berishga intiladilar. Bu yo'lda ular yangi so'z va iboralar yaratadilar. Bu tilning boyishi va me'yorlashuviga sabab bo'ladi.

Imlo va talaffuz qoidalari asosida yozish va so'zlashni xalqimiz orasida ommalashtirish dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. Til elementlarini me'yorlashtirish jarayonda eskilik va yangilik o'rtasida kurash hamisha davom etadi. Tilda yashab turgan so'z va iboralar ularning o'rniga kelayotgan yangilariga osonlikcha o'rnini bo'shatib bermaydi. Ma'lum muddat ular teng darajada parallel yashab turishi va vaqtlar o'tishi blangina o'rnini bo'shatib berishi mumkin.

O'zbek adabiy tili me'yoriy quyidagi turlarga ajratiladi: imlo me'yoriy; talaffuz me'yoriy; grammatik me'yoriy; so'z tanlash va qo'llash me'yoriy; uslubiy me'yoriy.

IMLO ME'YORLARI. Imlo me'yoriy, ya'ni to'g'ri yozish me'yoriy savodxonlikni belgilovchi asosiy mezon sanaladi. Imlo me'yoriy til vakillari tomonidan ongli ravishda kelishilgan holda yaratiladi. Bu me'yorlarning amal qilishi maxsus imlo qoidalari bilan tasdiqlanadi. Bunga harflar imlosi, o'zak va qo'shimchalar imlosi, bo'g'in ko'chirish, so'zlarni qo'shib va ajratib yozish kabilarga oid qoidalari kiritilgan. Yozma nutqda bu qoidalarga amal qilish majburiydir.

TALAFFUZ ME'YORLARI. Og'zaki nutq jarayonida til birliklarini adabiy til me'yorlariga muvofiq aytilishi talaffuz me'yorlariga asoslanadi. Talaffuzda tovushlarning to'g'ri aytilishi muhim bo'lib, o'ziga xos qonuniyatlarga asoslanadi. Nutq tovushlarining so'z tarkibida alifboda belgilanganidek talaffuz qilinishi me'yoriy sanaladi.

GRAMMATIK ME'YORLAR. So'z shakllari, qo'shimchalar, so'z birikmalarining yozilishi, gapda so'zlarining tartiblanishi, moslashuvi grammatik me'yorga asoslanadi. Nutqning grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishi adabiy tilning asosiy talabidir. Gapda so'z va qo'shimchalarining to'g'ri bog'lanishi, ega-kesim mosligi, gap bo'laklarining tartibi grammatika qoidalari asosida shakllanadi.

SO'Z TANLASH VA QO'LLASH ME'YORLARI. Adabiy tilda mavjud bo'lib, shu tilda gaplashuvchilarga tushunarli bo'lgan so'zni qo'llash nutqning muhim me'yorlaridan sanaladi.



So‘zni to‘g‘ri qo‘llashda quyidagilarni e’tiborga olish lozim:

- so‘zning nutqda ortiqcha takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun uning ma’nodoshlaridan o‘rinli foydalanish;
- shakldosh va paronim so‘zlarni ma’nolarini farqlagan holda ishlatish;
- so‘zlashuvchilar uchun tushunarsiz bo‘lgan sheva so‘zlari yoki ijtimoiy guruhlarga oid argolarni qo‘llamaslik;
- o‘zlashma so‘zlarni noo‘rin qo‘llashdan cheklanish, ularning milliy tildagi muqobillaridan foydalanish;
- so‘z qo‘llashda ixchamlik, tejamkorlikka erishish.

USLUBIY ME’YORLAR. So‘zni matnning xususiyati, nutqning maqsadiga muvofiq ishlatish, ko‘pchilikka tushunarli bo‘lgan so‘z shakllarini qo‘llash, so‘z va qo‘srimchalar hamda gap tuzilishidan nutq uslubining turiga muvofiq foydalanish adabiy tilning uslubiy me’yorlariga tayanadi. Uslubiy me’yorlarga amal qilishda quyidagilarni unutmaslik lozim:

- so‘zning asl va ko‘chma ma’nolarini farqlash;
- so‘zning ma’nodoshlik, shakldoshlik, uyadoshlik, darajalanish imkoniyatlarini bilish va bulardan o‘rinli foydalanish;
- so‘z va iboralarni aniq, tushunarli tarzda qo‘llash;
- nutq uslublarining o‘ziga xos xususiyatlarini nazarda tutish;
- til vositalarining badiiy, ta’sirchan imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish;
- so‘zarning uslubiy farqlanishini hisobga olish.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. O’zbek tilining izohli lug’ati.
2. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining ona tili fani darsliklari.
3. Internet materiallari.



COMMON READING PROBLEMS OF STUDENTS

Ubaydullayeva Nargiza Xamidxonovna
English teacher of school № 2
Pop district, Namangan region

The lessons of a foreign language are a fertile ground for the formation of a value-semantic competence, because, using language as a means, we study the surrounding world in all its manifestations. Students master it, participating in moral conversations, in situations of moral choice of actions, analyzing texts for reading and listening. The development of this competence occurs both in the classroom, and in extracurricular activities. The main source of development of this competence is information-communication and design-research technologies that help to receive and work out the maximum amount of information in the learning process. Information competence provides skills of the student's activity in relation to information contained in educational subjects and educational fields. Learning a foreign language provides enough opportunities for the formation of this competence.

Practice shows that information-communication technologies contribute to the individualization of learning and intensification of independent work of students, and to the increase of cognitive activity and motivation. Thus, the formation of communicative competence in teaching a foreign language is a paramount and fundamental task. Having a communicative competence, the pupil must:

— be able to introduce himself verbally and in written form, write a questionnaire, a statement, a resume, a letter, a congratulation;

— be able to represent his class, school, country in situations of intercultural communication, in the mode of dialogue of cultures;

— possess ways to interact with surrounding and remote people and events;

In conclusion, we would like to say that the modern development of society, economy and education calls for the development of mechanisms for the formation of human of the 21st century — a person who is capable of analyzing the current situation, actively participating in sociocultural activities, independently and responsibly making decisions under constantly changing conditions.

References:

1. Hymes, Dell H. (2002). «On communicative competence». In Pride, J. B.; Holmes, J. Sociolinguistics: selected readings. Harmondsworth Penguin.: 284.
2. Halliday, M. A. K. (2002). Language Structure and Language Function. On Grammar: Continuum, 284.



SIFATNI O'RGANISH METODIKASI

Musayeva Lolajon Atabayevna

Urganch tumani 27-sон мактаб о‘қитувчиси

Telefon: +998 (99) 969 72 11

musayeva.lolajon_27@inbox.uz

Ibragimova Gulandom Axmedovna

Urganch tumani 27-sон мактаб о‘қитувчиси

Telefon: +998 (97) 221 89 28

gulandom.axmedovna_27@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada sifatni o'rganish metodikasi va sifatni o'rganish tizimi materialni leksik va grammatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashtirib borishni ko'zda tutadi.

Kalit so'zlar: Sifat, leksik va grammatik material, lingvistik xususiyat, semantik-grammatik, morfologik va sintaktik.

Sifatni o'rganish tizimi materialni leksik va grammatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashtirib borishni ko'zda tutadi. O'quvchilar 1- va 2-sinfda sifatning leksik ma'nosini kuzatadilar, sifatga qanday?, qanaqa? so'rog'ini berishga o'rganadilar; 3-sinfda sifat so'z turkumi sifatida o'rganiladi; 4-sinfda ilgari o'rganilganlar takrorlanib, grammatik materialga bog'liq holda qip-qizil, yam-yashil kabi orttirma darajadagi (atama aytilmaydi) sifatlarning yozilishi o'rgatiladi. Ona tili va o'qish darslarida o'quvchilar nutqi yangi-yangi sifatlar bilan boyitiladi, ularga oldindan ma'lum bo'lgan sifatlarning ma'nosiga aniqlik kiritiladi.

Sifatni o'rganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Sifat predmetning belgisi (rangi, hajmi, shakli va ko'rinishi, maza-ta'mi, xarakter-xususiyati, hidi, vazni, o'rin va paytga munosabati)ni bildiradi. Sifatning leksik ma'nosi uni ot bilan bog'liq holda o'rganishni talab qiladi. Sifatni tushunish uchun 1-sinfda o'quvchilar e'tibori sifatning otga bog'lanishini aniqlashga qaratiladi. O'quvchilar predmetning belgisini aytadilar, ularda so'roq yordamida gapda so'zlamning bog'lanishini aniqlash ko'nikmasi o'stiriladi, ya'ni ular gapdagi sifat va otdan tuzilgan so'z birikmasini ajratadilar (atama aytilmaydi). Keyingi sinflarda bu bog'liqlik aniqlashtiriladi. Shunday qilib, sifatning semantik-grammatik xususiyatlari sifat ustida ishlashni leksik va grammatik (morfologik va sintaktik) yo'nalishda olib borishni talab etadi.

Boshlang'ich sinflarda „Sifat” mavzusi quyidagi izchillikda o'rganiladi: I) sifat bilan dastlabki tanishtirish (1-, 2-sinf); 2) sifat haqida tushuncha berish (3-sinf); 3) shu grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim sifatlarning yozilishini o'zlashtirish (4-sinf). Sifat bilan (atamasiz) dastlabki tanishtirish (birinchi bosqich) sifatning leksik ma'nosi va so'roqlari ustida kuzatish o'tkazishdan boshlanadi. Predmetning belgilari xilma-xil bo'lib, uni rangi, mazasi, shakli, xil-xususiyatlari tomonidan tavsiflaydi. Shunday ekan, sifat tushunchasini shakllantirish uchun uning ma'nolarini aniqlash talab etiladi.

O'qituvchi predmetni yoki uning rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning belgilarini aytadilar va yozadilar. Masalan, (qanday?) olma - qizil, shirin, yumaloq olma; (qanday?) ip — uzun, ko'k ip. Albatta, suhbat asosida o'quvchilar olma, ip so'zları nima? so'rog'iga javob bo'lib, predmet nomini bildirishi, qizil, shirin, yumaloq kabi so'zlar qanday? so'rog'iga javob bo'lib, predmetning belgisi (rangi, mazasi, shakli) ni bildirishini aniqlaydilar. O'qituvchi atrofimizni o'rab olgan predmetlarning o'z belgilari borligini, ular bir-biridan shu belgilar bilan farqlanishini yana bir-ikki misol bilan tushuntiradi (Qanday? daraxt—Katta, chiroyli, sershox, ko 'm-ko 'k daraxt. Qanaqa? shkaf — Oynali, baland shkaf). Xulosa chiqariladi: qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar predmet belgisini bildiradi. O'quvchilar belgi bildirgan bunday so'zlamning nutqimizdagi ahamiyatini anglashlari uchun sifat ko'p uchraydigan matn tanlanib, awal sifatlarini tushirib qoldirib, so'ngra sifatlari bilan o'qib beriladi va mazmuni taqqoslab ko'rsatiladi. Predmetni aniq tasvirlash uchun uning belgisini bildiradigan so'zlardan foydalilanligani tushuntiriladi. Bu darslarda ko'rgazma vositalar (predmetlar, predmet rasmlari, sujetli rasmlar)dan keng foydalananadi. O'quvchilar qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'lgan (predmet belgisini bildirgan) so'zlarni o'zlashtirishlari uchun mashqning quyidagi turlari samarali hisoblanadi: 1) so'roq yordamida predmetning belgisini bildirgan so'zlarni tanlash; 2) aralash berilgan so'zlardan gap tuzish; 3) matndan kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zni va unga bog'langan qanday? va qanaqa? so'rog'iga javob



bo'lgan so'zni tanlab (so'z birikmasini topib) aytish va yozish; 4) tayanch so'zlar va rasm asosida gap yoki kichik hikoya tuzish.

Ikkinci bosqichda asosan ikki vazifa: „Sifat” tushunchasini shakllantirish hamda o'quvchilar nutqini yangi sifatlar bilan boyitib borish, fikmi aniq ifodalash uchun mazmunga mos sifatlardan nutqda o'rinali foydalanish ko'nikmasini o'stirish hal qilinadi. „Sifat“ tushunchasini shakllantirish o'quvchilaming „predmet belgisi” degan umumlashtirilgan kategoriyani o'zlashtirish darajasiga bevosita bog'liq. Shu maqsadda rang, maza, shakl, hajm, xil-xususiyat bildiradigan so'zlar guruhlanadi va shu so'zlamning xususiyatlari umumlashtiriladi. Sifatning leksik ma'nosi bilan birga uning xarakterli grammatik xususiyatlari ham qayd etiladi. Sifatlarning xususiyatlarini umumlashtirish asosida o'quvchilar uning so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos ko'rsatkichlarini ajratadilar: a) predmet belgisini bildiradi,b) qanday? yoki qanaqa? so'rog'iga javob bo'ladi, d) gapda otga bog'lanib, shu ot bilan so'z birikmasi hosil qiladi, ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi. Bu sinfda og'zaki va yozma ijodiy ishlar (maktab bog'i yoki parkka ekskursiya vaqtida kuzatilgan daraxt, qushlar, hayvonlarni tasvirlab kichik hikoya tuzish kabilalar)ga katta o'rinn beriladi. O'quvchilaming sifatning leksik ma'nosi haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirish va predmetni har tomonlama tasvirlash malakasini o'stirish uchun:

1) berilgan predmetlarning rangi, mazasi, shakli, xususiyatini ifodalaydigan sifatlar tanlash va yozish: Qanday? Shaftoli-Shirin, suvli, tuksiz shaftoli. Qanday? kitob Qalin, qiziqarli kitob;

2) berilgan belgilariqa qarab qaysi hayvon ekanini aniqlash: Tikanli, kichkina, foydali ... (tipratikan). Ehtiyyotkor, ayyor, yovvoyi ... (tulki);3) predmetlarning belgisiga qarab topishmoqlarning javobini aytish kabi mashqlardan foydalanish mumkin.

Sifatning nutqimizdagagi, fikrni aniq va tushunarli ifolashdagi o'rnini puxta o'zlashtirishga erishish uchun ma'nodosh va zid ma'noli sifatlar ustida ishlash, o'qish darslarida sifatning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishini kuzatish maqsadga muvofiq. Sifatni o'rganish jarayonida so'z yasashga oid mashqlarni muntazam o'tkazib borish o'quvchilarda u yoki bu so'z turkumini yasash uchun so'z yasovchi qo'shimchalardan ongli foydalanish malakasini shakllantiradi.Uchinchi bosqichda sifat haqidagi bilimlarni takomillashtirish, og'zaki va yozma nutqda sifatlardan aniq, o'rinali foydalanish ko'nikmasini o'stirish bilan bog'liq holda -roq qo'shimchasi bilan qo'llangan sifatlarni va ko'mko'k, yam-yashil kabi sifatlarni to'g'ri yozish malakasi shakllantiriladi. Ish mazmuni shu vazifalarni bajarishga qarab belgilanadi va o'quvchilar nutqini o'stirishga qaratiladi.

Nazariy ma'lumotlarga asoslanib: matnda berilgan otlaming belgilariini ifodalaydigan sifatlarni tanlab qo'yish, gapda sifat bog'langan otni (so'z birikmasini) aniqlab yozish; otga mos sifatlar tanlab predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki so'z birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi. Mashq materialini tanlashda -roq qo'shimchasi bilan qo'llangan yaxshiroq, aqlliroy kabi, shuningdek, tip-tiniq, sap-sariq kabi sifatlar ko'proq bo'lishiga e'tibor beriladi. O'quvchilaming mustaqilligi osha borgan sayin mashq topshiriqlari ham asta-sekin murakkablashtira boriladi. Shunday qilib, sifatni o'zlashtirishda uni ot bilan o'zaro bog'liq holda o'rganishga asoslaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. A.Zunnunov va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. T.: O'qituvchi41, 1992.
2. A.Rafiyev. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi.T.: 2003.
3. A.G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - T.: „O'qituvchi”, 1992.



RUHIY HOLATNI IFODALOVCHI SO'Z VA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI

Norinboeva Durdonakhon Janobiddin qizi

Farg'ona Davlat Universiteti Chet tillari fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish : ingliz tili yo'nalishi talabasi

+998 90 755 96 05 E-mail: durdonakhonnorinboeva@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi kunda, inson ruhiyati jamiyat hayotida juda muhim rol o'ynamoqda. Ayniqsa, unga ta'sir qiladigan so'zlar va frazeologik birikmalarini o'rganish va tadqiq etish dolzarb muammoga aylanmoqda. Ushbu maqola, ruhiy holatni ifodalovchi so'z va frazeologik birliklarning semantik tahlilini yoritib beradi. Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarning mazmun-mohiyati, funksional xususiyati asosida guruhlarga ajratilib tasnif qilinadi.

Annotation. Nowadays, the human spirit plays a very important role in the life of society. The study and research of words and phraseological combinations that affect it is becoming an urgent problem. This article covers the semantic analysis of words and phraseological units that express mental states. Phraseologisms in English and Uzbek are divided into groups based on their content and functional characteristics.

Kalit so'zlar. Lingvistika, frazeologik birikmalar, psixologiya, ekspressiv-emotsional xususiyatlar, subyektiv-pragmatik kategoriylar, intensifikatsiya va deintensifikatsiya kategoriylari, grammatik qurilish.

Keywords. Linguistics, phraseological combinations, psychology, expressive-emotional features, subjective-pragmatic categories, intensification and de-intensification categories, grammatical construction.

Inson his-tuyg'ularini har tomonlama mukammal tarzda ifodalashning eng samarali vositasi tildir. U shunday xususiyatga ega bo'lganligi uchun ham inson his-tuyg'ularini "boshqara oladi", ya'ni uning qalbida turl kechinmalar va hissiyotlar paydo qilish xususiyatiga ega. Binobarin, tilning har bir sohasi - fonetika, morfologiya, leksika va semantika ortida psixologiya yashiringan. Shu sababli lingvistika va psixologiya o'zaro aloqador sohalar hisoblanadi.

So'nggi vaqtarda tilshunoslikda rang va uning turli xil jilosi hamda ularga xos ekspressiv-emotsional xususiyatlarning og'zaki va yozma nutqda aks etishiga doir masalalar tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda. Shunday ekan, tilda ranglarning qo'llanishi va ular bilan bog'liq ekspressiv-emotsional xususiyatlarning aynan frazeologiya sohasida ham tadqiq etish inson ichki kechinmalari va ruhiyatini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, frazeologik iboralarda ranglarning qo'llanishi ichki ruhiyatni tashqi ruhiyatda aks ettirish jarayonini ancha osonlashtiradi, ya'ni boshqacha qilib aytganda, ruhiyat olamidagi ichki his-tuyg'uning rangin manzarasini «ko'ra olish»ga yordam beradi. Bu borada faylasuf Taftazoniy inson ichki his-tuyg'usi tashqi hissiyot asosida paydo bo'lishini qayd etadi, shuningdek, narsalar to'g'risida biror tushuncha hosil qilish his-tuyg'u uyg'otgan qiyofa orqali amalga oshishini ko'rsatib o'tadi. Binobarin, olim Sh.Safarov ta'kidlaganidek, insonlar o'rtasidagi muloqot maqsadi ham oddiygina axborot almashish bilan chegaralanib qolmaydi, balki, axborot uzatish orqali «hamkor»ga ta'sir o'tkazish, uni biror narsaga ishontirish, bo'ysundirish, harakatga undash kabi maqsadlar ham e'tiborga olinadi.

Ma'lumki, har bir til frazemalarining semantikasi bir-biriga o'xshash bo'lmagan murakkabligi bilan ajralib turadi. Tillardagi intensifikatsiya va deintensifikatsiya kategoriylari orqali lisoniy belgilarni kuchaytirish yoki susaytirish, ularning miqdorini kamaytirish yoki ozaytirish holatlari vujudga keladi. Ushbu holatning yorqin ko'rinishi frazemalarning paydo bo'lishida, ularning o'zaro pragmatik munosabatlarida namoyon bo'ladi. Falsafiy kategoriyalardan bo'lgan miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga bo'lgan ta'siri, qonuniyatini frazemalar misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ular tilning leksik sathida mavjud bo'lgan nomlash, sifat, miqdor, baho, emotsiyonallik, obrazlilik, tasvirlash, ekspressivlik kabi subyektiv-pragmatik kategoriylar bilan uzviy bog'liq bo'lgan holda yangi til birligi sifatida voqealanadilar hamda tilning semantik tizimida sifat ko'rsatkichiga ega bo'lgan yangi birlik sifatida shakllanadilar.

Insonning ruhiy holati va his-tuyg'ulari uning nutqi va tashqi ko'rinishi orqali namoyon bo'ladi. Nutqning ta'sirchanligi va emotsiyonalligini oshirishga xizmat qiladigan so'zlar, shuningdek, frazeologik birliklar o'z ma'nolari bilan inson ruhiyatiga ta'sir etish xususiyatiga ega. Shu boisdan



fikrni tinglovchiga yetkazishda frazeologizmlar ham boshqa til birliklari singari voqeal-hodisalarini aks ettirishda o‘ziga xos ta’sirchanligi bilan ajralib turadi. Ularning asosiy ahamiyati nutqni ifodalashda unga hissiy rang berish va uning ma’nosini mustahkamlashdan iboratdir.

Ingliz tilida ham o‘zbek tilidagi kabi frazeologik birlıklar 4 guruhga bo‘linadi. Buning yorqin isboti sifatida quyidagi ingliz yilidagi misollarga e’tibor qaratsak:

1. Shaxsning salbiy xususiyatlarini ifodalovchi frazemalar: a bad actor, fiddle while Rome is burning, swear black is white, hit a man when down, sell a person, shoot the sitting pleasant, a double game, window dressing, show a false face.

2. Shaxsning ijobjiy taraflarini ifodalovchi frazemalar: not to mince, not to put too fine an edge upon, tell somebody his own, single heart, open as the day, plain dealer, take something well, take it on the chin, fear no colours, high blood, be free of ones flesh.

3. Shaxsning tashqi ko‘rinishini ifodalovchi frazemalar: a set of features, a dead pan, aquiline nose, like a full moon, ripe lips, Cupids bow, mutton-chop whiskers, a beauty spot, Jack Sprat, to be on the short side.

4. Shaxsning intellektual qobiliyatini ifodalovchi frazemalar: all there, have more brains in ones little finger than one has in his whole body, clever Dick, a clever head, be (run) in blinkers, have a bad head for something, a one-track mind, have got apartments to let, not to have a brain in one’s head, a proper Charley, cousin Betty, dead from neck up, dump Dora, long hair and short wit.

Frazeologizmlar faqat ma’no xususiyatlariga ko‘ra emas, balki o‘zlarining grammatic qurilishi mohiyatiga ko‘ra ham o‘zaro farqlanadilar. Masalan, ma'lum bir matnni sintaktik tahlil qilishda, frazeologik qo’shilmalarning komponentlarini sintaktik bo'laklar sifatida umumiyl tahlilga bo'yshindirish mumkin, biroq frazeologik butunlik va frazeologik chatishmalar haqida gap borganda, bunday deyish qiyin. Bu ularning tarkibidagi qismlarning qay darajada bitishib, ajralmas bo'laklarga aylanib qolgan-qolmaganligiga bog'liq. Shu jihatdan, frazeologizmlarning grammatic qurilishi – tuzilishiga ko‘ra xususiyatlarini alohida o’rganish ahamiyatsiz emas, aksincha, ularni tiplarga ajratishda, mohiyatini ochib berishda katta imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, , bir qator frazeologizmlar mavjudki, ular til egalarining turli psixologik, emotsiyal holatini, bir so‘z bilan aytganda, kreativ holatini voqealantirish uchun “dunyoga” kelgan. Bunday frazemalar ko‘proq milliy mentalitet bilan sug‘orilgan. Darvoqe, o‘zbek tili frazemalari voqealantirgan narsa, hodisa va turli psixologik holatlarni ingliz tili frazeologik “dunyosi”da ham kuzatishimiz mumkin. Ta’kidlash lozimki, bir qator holatlarda ikkala tilda ham birxil leksik komponentlarga ega bo‘lgan frazemalar o‘xshash, ba’zan juda yaqin bo‘lgan tushunchalarini ifodalovchi birlıklar sifatida shakllanganlar. Ushbu holat xalqlarning mantiqiy fikrlash yo’llari mushtarakligidan darak beradi. Lekin, shu bilan birga, har bir til o‘z makoni, hududida gapiruvchi xalqning diniy, milliy-tarixiy xususiyatidan kelib chiqqan holda, o‘ziga xos birlıklar bilan boyib boradi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro’yxati

1. Babkin A. M., Russkaya frazeologiya, razvitiye i istochniki. L., 1970;
2. Vinogradov V. V., Osnovnie ponyatiya russkoy frazeologii kak lingvisticheskoy dissiplini, v yego knige: Izbrannie trudi, t.
3. Leksikologiya i leksikografiya, M., 1977; Bibliograficheskiy ukazatel literaturi po voprosam frazeologii, vip. 3—4, Samarkand, 1974—76;
4. Rahmatullayev Sh ., O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari, T., 1966;



TIL MILLATNING RAMZI

Rajapov Dilshad Bahodirovich

Gurlan tumani 22-sون мактаб о'қитувчиси

Telefon: +998 (97) 792 30 47

rb.dilshad_22@inbox.uz

Djabbarova Ranojon Ataboyevna

Urganch tumani 27-сон мактаб о'қитувчиси

Telefon: + 998 (90) 648 84 60

djabbarova.ranojon_27@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola Davlat tilimiz bo'lgan o'zbek tilini rivojlantirish masalalari hamda, O'zbekiston fuqarolari bo'lgan boshqa millat vakillarining o'zbek tilimizga bo'lgan munosabati haqida.

Kalit so'zlar: Til, milat, ramz, iftixor, kitobxon, moziy, mustaqillik, qadriyat.

Ona tilimizning O'zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida mamlakatimizda asosiy ijtimoiy-iqtisodiy va rasmiy muloqot tiliga aylanib borayotganligi istiqlol bergen buyuk ne'matlardan biridir. Bugungi kunda respublikamizda fuqarolarning davlat tilidagi savodxonligiga, xususan, Respublikamizda yashovchi boshqa millat vakillarining o'zbek tilida erkin og'zaki va yozma muloqot yurita olishlariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Jamiyatda tilning amaliy ahamiyati nihoyatda katta, shu bois har bir mamlakatda tillarni o'qit-ish, o'rganish masalalariga jiddiy e'tibor qaratiladi. Til ta'limida tilni ona tili sifatida, ikkinchi til yoki xorijiy til sifatida o'qitilishi o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Bu o'quv fanlarining nomlanishida ham aks etadi. Ma'lumki, har bir tilning davlat miqyosidagi maqomi uning mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy o'rni, jug'rofiv-siyosiy holati kabi qator omillardan kelib chiqib belgilanadi. omillardan kelib chiqib belgilanadi. Jumladan, O'zbekistonda umumiyo o'rta ta'lim 7 tilda olib borilishi, bular orasida qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq tillari bir oilaga mansub qardosh tillar ekanligi e'tiborga olinsa, ularga nisbatan "o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish" atamasini qo'llash, albatta, nojoiz bo'ladi. Ayni paytda, ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda turli millatlar vakillari, hatto o'zbeklar ham ta'lim olayotgani va eng asosiysi, ushbu turli millat vakillarining O'zbekistonda tug'ilib, respublikamizda muqim yashayotganligi ham nazarda tutilsa, o'zbek tilini ikkinchi til yoki xorijiy til sifatida emas, aynan davlat tili sifatida o'qitish maqsadga muvofiqligi ham yaqqol ko'rindi. Respublikamizda istiqomat qilayotgan 30 milliondan ortiq aholi orasida 130dan ortiq millat vakillari borligi e'tiborga olinsa, bu davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy masala ekanligi yaqqol ko'rindi.

Ma'lumki, davlat ta'lim standartlari har bir fan bo'yicha o'quvchilar va talabalarning tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan minimal daraja ko'rsatkichlari bo'lib, ta'lim mazmuni, shakllari, usullari, baholash tartibini belgilab beradi va ta'lim mazmunining asosi hisoblanadi. Bunda o'zbek tili ta'limi oldiga qo'yiladigan asosiy talab, avvalo, o'quvchini o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olish, o'zgalar bilan turli nutqiy vaziyatlarda muloqot yurita olishga o'rgatish, ya'ni kommunikativ savodxonlikni shakllantirishdan iborat. Hozirgi kunda standartlashtirishning ana shu umumiyo talab va mezonlaridan kelib chiqib, o'zbek tilini o'qitishda kommunikativ modelga asoslangan ta'lim mazmuni ishlab chiqilgan.

O'zbek tilidagi faol nutqiy qurilmalarini o'rgatish, grammatik bilimlar, so'z va so'z birikmalarining bog'lanish qoidalarini esa nutqiy ehtiyoj, fikr ifodalash maqsadidan kelib chiqqan holda o'rgatish talab qilinadi. Ko'rindiki, tilni ona tili sifatida o'qitish bilan ikkinchi til sifatida o'qitish o'zaro qat'iy farqlanadi va alohida tamoyillarga tayanadi. Til o'rganishda asosan nutq, muloqot yuritish, kommunikatsiya masalalariga yetakchi o'rinda turgani uchun til ta'limi tamoyillarini belgilashda ko'proq shu jihatga ustuvor ahamiyat beriladi.

Demak, Respublikamiz ta'lim bosqichlarida o'zbek tilini o'qitishni takomillashtirish, buning uchun esa, avvalo, o'zbek tili ta'limi mazmunini til ta'limining xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish zarur.

Ona tilimizning respublikamiz hududida millatlararo asosiy muloqot vositasiga aylanib borishi ko'p jihatdan umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kollejlar hamda oliy ta'lim tizimida o'zga tilli guruhlarda o'zbek tilining o'qitilishi, ularda amal qilinayotgan o'quv dasturlari va



darsliklar mazmuniga bog‘liq.

O‘zbekistonda yashovchi barcha millat vakillarining o‘qish va ishlash jarayonida mahalliy millat vakillari bilan teng munosabatda bo‘lishlari, barcha sohalarda erkin fikr almashishlari uchun o‘zbek tili ta’limi xalqaro standart talablariga javob berishi, o‘zbek tilining kommunikativ-nutqiy va lingvistik kompetensiyasi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni yetarli darajada egallashlari ko‘zda tutildi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o‘stirishdan tarqatma materiallar. T., «O‘qituvchi», 2003.
2. Ishmuhamedov R. va b. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. T.: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iste’dod» jamg‘armasi, 2008.
3. Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o‘stirishdan tarqatma materiallar. T., «O‘qituvchi», 2003.



ONA TILI FANINI O'QITISHDA FSMU METODIDAN FOYDALANISH

**Ramanova Raxima Zokirboy qizi
Masharipova Muqaddas Odamboyevna**
Xorazm viloyati Urganch tuman
10-son maktabi ona tili o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili fanini o'qitishda FSMU metodining ahamiyati haqida fikr boradi.

Kalit so'zlar: FSMU, interfaol metodlar, Pedagog

Hozirgi kunda ta'llim tizimida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiya va metodlar o'quvchilarning yuksak bilim cho'qqilarini egallab, ularni fikrlashga, o'z shaxsiy va mustaqil qarashlarga ega bo'lishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Har bir o'qituvchi dars o'tishdan oldin darsda qo'llaydigan innovatsion pedagogik texnologiyalarning har bir elementigacha puxta o'rGANishi va tadqiq qilishi lozim.

Pedagog - ya'ni bola yetaklovchi, bolaga faqat tayyor fikr bermasligi kerak balki uning fikrini kengaytirishi, olamni o'rganishga imkon beruvchi vositalarni topa bilishga o'rgatishi zarur.

Biz bir necha zamonlar an'anabiy uslubda ish olib bordik. To'g'ri, bu tizimda ham bolalarga billim berildi, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari shakllantirildi. O'qituvchi ham o'quvchi ham bir qobiqda harakat qildi, buni qoliplangan tizim desak ham bo'ladi, har ikkalasida ham ma'suliyat yo'qoldi.

Hozirgi kunda asosiy pedagogik texnologiyalar imperik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, adattiv, inkulyuziv va boshqa texnologiyalardir. Dars jarayonida bu texnologiyalarni tanlay bilish - bu o'qituvchining mahoratiga bog'liq

FSMU texnologiyasi munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (o'quvchilarning o'quv-seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida) yoki o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanishi mumkin, chunki bu texnologiya o'quvchilarning o'z fikrini himoya qilishga, mustaqil va erkin fikrlash, o'z fikrini boshqalarga asosli ravishda ifoda etishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda o'quvchilarning o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda o'quvchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

Ushbu texnologiya o'quvchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi. O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1-bosqichda:

-o'qituvchi o'quvchilar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo'lgan muammoni yoki o'rganilgan bo'limni belgilab oladi;

-o'qituvchi darsda avval har bir o'quvchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi, va nihoyat, dars oxirida jamoa bo'lib ishlanishi haqida o'quvchilarga ma'lumot beradi;

-dars davomida har bir o'quvchi o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkinligi eslatib o'tiladi.

2-bosqichda:

-har bir o'quvchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F (fikringizni bayon eting);

S (fikringiz bayoniga sabab ko'rsating);

M (ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring);

U (fikringizni umumlashtiring).

-Har bir o'quvchi yakka tartibda tarqatilgan qog'ozdagi FSMU ning 4 bosqichini o'z fikrlarini yozma bayon etgan holda to'ldiradi.

3 -bosqichda:

-har bir o'quvchi o'z qog'ozlarini to'ldirib bo'lgach, o'qituvchi ularni kichik guruhlarga bo'linishlarini iltimos qiladi yoki o'zi turli guruhlarga bo'lish usullaridan foydalangan holda o'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib yuboradi;



-o'qituvchi har bir guruhgaga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi;

-o'qituvchi kichik guruhlarga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4 bosqich bo'yicha yozilishini taklif etadi.

4 -bosqichda:

-kichik guruhlarda avval har bir o'quvchi o'zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a'zolarini tanishtirib o'tadi. Guruh a'zolarining barcha fikrlari o'rganilgach, kichik guruh a'zolari ularni umumlashtirishga kirishadi;

-guruh a'zolari FSMU ning 4 bosqichini har biri bo'yicha umumlashtirib uni himoya qilishga tayyorgarlik ko'radir;

-fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir o'quvchi o'z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ishmuhammedov R. "Pedagogik texnologiyalar"
2. Ona tili darsligi 5-sinf.
3. "Til adabiyot ta'limi" jurnali.
4. Shaykhislamov, N. (2021). THE DIRECTION OF MODERN LINGUISTICS THE CONCEPT OF COGNITIVE LINGUISTICS. Scientific progress, 2(2), 1641-1646.



ФОНЕТИКА

Исмаилова Манзура Султановна

Бегова Базоргуль Тулиевна

Ургенчский район, Хорезмская область

Учитель начальных классов №10

АННОТАЦИЯ: Каждый звук речи произносится преимущественно посредством движения органов речи, т. е. имеет физиологический характер. Речь выполняет определенную функцию и поэтому имеет функциональное значение. Звуки речи можно изучать с разных точек зрения в зависимости от их характеристики. Например, в фонетике мы изучаем звуковой строй языка, в этой статье также рассказывается о фонетике и дается вся информация о ней.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: фонетика, артикуляция, физиология, орфография, орфоэпия, лексикология, грамматика;

Общеизвестно, что понятие фонетики в настоящее время признано всеми лингвистами, однако единого мнения о ее статусе нет. В фонетике все звуки языка, их происхождение и виды, органы речи, состояние их движения в звукообразовании, речевой аппарат, акустические и артикуляционные особенности звуков речи, различные фонетические явления, возникающие в речевом процессе, фонетическое членение речи. Изучается коммуникативная роль звуков и таких явлений, как просодика. Итак, фонетика - (гр. тел. - звук) - раздел языкознания, изучающий звуковой строй языка в самом широком смысле. Он исследует все события, связанные со звуками. Поэтому неправильно рассматривать его только как единицу, исследующую звуковой строй языка. Он изучает особенности образования и произношения звуков в этом языке, вопросы, связанные с его классификацией, рассматривает взаимосвязь произношения и письма, а также особенности ударения и слога. Фонетика — это изучение звуковой системы языка и любых явлений, связанных с этими звуками, и она касается всех уровней языка, особенно лексики и грамматики. Фонетика также изучает такие проблемы, как обмен и изменение звуков, правила литературного произношения, правила правильного произношения, слоги и ударения, их виды. Это означает, что без необходимых знаний по фонетике невозможно успешно работать над правилами орфографии и грамматики (морфологией и синтаксисом), связанными с правильным произношением. В то же время изучение фонетики помогает усвоить нормы орфографии (правильное написание), орфоэпии (правильное произношение), определить разницу между литературным произношением и диалектным произношением. Таким образом, фонетика непосредственно связана с такими разделами языкознания, как орфография, орфоэпия, лексикология, грамматика, диалектология.

Фонетика также тесно связана с физикой (частью акустики) и физиологией. Фонетика опирается на акустику для изучения слуховых аспектов звуков и физиологию для изучения аспектов произношения, произношения и формирования. Кроме того, он находится в постоянном контакте с литературными и общественными науками. Звуки речи можно изучать с разных сторон: исторически, сравнительно, с точки зрения сравнения звуков речи современных узбекских и местных диалектов, экспериментирования со звуками речи с использованием различных средств и т.д. на. Соответственно, фонетика теоретически делится на общую фонетику и частную фонетику, а на практике — на несколько направлений, таких как историческая фонетика, сравнительная фонетика, описательная фонетика и экспериментальная фонетика.

Фонетика также изучает такие проблемы, как обмен и изменение звуков, правила литературного произношения, правила правильного произношения, слоги и ударения, их виды. Это означает, что без необходимых знаний по фонетике невозможно успешно работать над правилами орфографии и грамматики (морфологией и синтаксисом), связанными с правильным произношением. В то же время изучение фонетики помогает овладеть нормами орфографии (правильное написание), орфоэпии (правильное произношение), определить отличие литературного произношения от диалектного. Таким образом, фонетика имеет непосредственное отношение к таким разделам языкознания, как орфография, орфоэпия, лексикология, грамматика, диалектология. Фонетика тесно связана с физикой (часть



акустики) и физиологией. Кроме того, он находится в постоянном контакте с литературой (например, слоги, метрики измерения и эффективное чтение) и общественными науками можно изучать: с исторической точки зрения, с точки зрения сравнительной, с точки зрения сравнения звуков речи современного узбекского языка и местных диалектов, по периметру и так далее.

В заключение, звуки речи являются материальной основой для построения слов и предложений, потому что человеческий язык есть язык звуков. Фонетика — раздел языкоznания, в котором изучаются звуки речи, их образование, виды, изменения, ударения, слоги, мелодии и т. д. Фонетическая акустика — это область, изучающая физические свойства звуков речи.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Иномходжаев И., Ходжаев А. Искусство художественного выражения. Ташкент, 1972 год.
2. Орехова Т. Ф. Подготовка курсовых и дипломных работ по педагогическим наукам: учеб. Пособие. М.: Издательство: Флинта,2011.
3. Скрипник Я.Н., Смоленская Т.М. Фонетика современного русского языка, 2010.
4. Современный русский литературный язык / Под ред. П. А.Леканта — М., 2009г.
5. Соловьёва Н.Н. Полный справочник по русскому языку: Орфография. Пунктуация. Орфоэпия. Лексика. Грамматика. Стилистика. М.:Мир и Образование,2011.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 7-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзисев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.08.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000